

**“O‘ZKIMYOSANOAT” AJ  
HAMDA “MCQ COMPANY KZ” MChJ (QOZOG‘ISTON) O‘RTASIDA  
MEMORANDUM**

“O‘zkimyosanoat” AJ va “MCQ Company KZ” MChJ (Qozog‘iston), keyingi o‘rinlarda “Tomonlar” deb yuritiladi,

Tomonlar davlatlarining qonunchiligiga muvofiq ayollarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda bir-birini qo‘llab-quvvatlash va yordam ko‘rsatish bo‘yicha Tomonlar o‘rtasidagi hamkorlikning dolzarbligini hisobga olgan holda,

xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlik O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonch bildirgan holda, tenglik va o‘zaro manfaatdorlik tamoyillariga asoslanib, quyidagilarga kelishib oldilar:

**1-modda**

Tomonlar o‘z vakolatlari doirasida xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi hamkorlikni Tomonlar davlatlarining qonunchiligiga muvofiq rivojlantiradilar.

**2-modda**

Tomonlar ushbu Memorandum doirasida quyidagi yo‘nalishlarda hamkorlik qiladilar:

- oilani qo‘llab-quvvatlash masalalarida o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish;
- gender tengligini ta‘minlash, xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotidagi rolini oshirish;
- ayollar tadbirkorligini rivojlantirish;
- xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida bilim va tadqiqot natijalari bilan o‘zaro axborot almashish;
- sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish;
- kadrlar tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish, milliy va mahalliy miqyosda xotin-qizlar salohiyatini mustahkamlash, shuningdek, tajriba almashish.

**3-modda**

Tomonlar oila, ayollar va bolalar masalalari bo‘yicha ikki tomonlama hamkorlikni quyidagi shakllarda rivojlantirishni maqsad qilishgan:

eng muhim amalga oshirilayotgan tadbirlar, yangi g‘oyalar va ilg‘or tajribalar haqida ma‘lumot almashish;

oila, ayollar va bolalar muammolari bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish uchun qo'shma platformalarni shakllantirish;

xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning tadbirlari va forumlari doirasida o'zaro manfaatli masalalarni muhokama qilishda bir-birini qo'llab-quvvatlash va ko'maklashish;

oila, xotin-qizlar va bolalar muammolari, xotin-qizlarning jamiyatdagi yutuqlarini ommalashtirish va rag'batlantirish, ularning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi rolini oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan tajriba, ma'lumotnoma, statistik va tahliliy ma'lumotlar almashish;

Tomonlar manfaatdor bo'lgan sohalarga taalluqli loyihalarni birgalikda amalga oshirish.

#### **4-modda**

Ushbu Memorandum qoidalarini qo'llash yoki talqin qilish bilan bog'liq har qanday kelishmovchiliklar Tomonlar o'rtasidagi maslahatlashuvlar va muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

#### **5-modda**

Tomonlarning o'zaro kelishuviga binoan ushbu Memorandumga uning ajralmas qismi bo'lgan alohida bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

#### **6-modda**

Mazkur Memorandum imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi va Tomonlardan biri boshqa Tomonning uning amal qilishini tugatish niyati to'g'risidagi yozma bildirishnomasini olgan kundan e'tiboran olti oy o'tgunga qadar amal qiladi.

#### **7-modda**

Ushbu memorandum xalqaro shartnoma emas va tomonlar uchun xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan huquq va majburiyatlarni belgilamaydi.

Mazkur Memorandum 2024-yil 04-iyul kuni Toshkent shahrida, ikki nusxada, har biri o'zbek va rus tillarida tuzilgan bo'lib, barcha matnlar bir xil kuchga ega.

Ushbu Memorandum qoidalarini talqin qilishda kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlar rus tilidagi matnga murojaat qiladilar.

